

## NAZAR ESHONQULNING ASARLARIDA QO`LLANILGAN O`ZLASHMA SO`ZLAR ( “ Taqiq mevasi ” romani misolida)

**Mohina Abdujabbor qizi Solijonova**  
**Andijon davlat unversiteti magistranti**

**Annotatsiya :** Ma`lumki , Hozirgi o`zbek tili tarixan boshqa tillar bilan uzviy aloqada bo`lib kelgan va ma`lum bir shakllanish bosqichlarini boshidan kechirgan . Shu tariqa tilga yangi qatlamga oid so`zlar kirib kela boshlagan . Ulardan so`zlashuv tilida ham badiiy asar tilida ham unumli foydalanilgan. Har bir kirib kelgan so`zlar o`zlashma so`z deyilgan va ular o`zining etaloniga ega bo`lgan .

**Kalit so`zlar :** o`zlashma so`z , etalon , arabizmlar , forscha so`zlar , emotsionallik

**Abstract :** It is known that the modern Uzbek language has historically been in close contact with other languages and has gone through certain stages of formation. Thus, words of a new layer began to penetrate into the language. Each input word is called its own word and has its own standard.

**Key words:** idiom, standard, arabisms, persian words, emotionality

**Kirish.** Dunyoda biror til yo`qki , O`zlashma so`zlar qatnashmagan. Barcha tillarda olinma so`zlar mavjud bo`lib ular tilga singib ketgan . O`zbek tili lug`at tarkibining boyishida ichki manba imkoniyatlari muhim asos hisoblanadi , biroq hech bir til faqat ichki manbalar bilan chegaralanib qolmaydi. O`zbek tili uchun ham faqat o`z so`zlari , o`z qatlami boyligi va imkoniyatlarigina kifoya qilmaydi . O`zbek tili lug`at tarkibi boyishida tashqi manba ham muhimdir. Turli tillarning turli tarixiy holatlarida (elchilik munosabatlari , qarindoshlik rishtalari )da ichki qatlamga tashqi qatlamning birliklari qo`shilishi kuzatiladi . Natijada , tashqi manbalardan kirgan birliklar ichki manbaga birikadi va shu tilning adabiy yoki so`zlashuv nutqlarida o`z o`rniga ega bo`ladi.

O`zbek tilining lug`at tarkibidagi o`zgarishlar uchun umumiy bo`lgan ikki tushuncha mavjud:

Eskini yangi bilan almashtirish ; Boshqa tillardan so`z qabul qilish.

O`zbek tili o`tmishda bir qator qardosh bo`lmagan tillar bilan ham aloqada bo`lgan. Jumladan , Fors -tojik va arab tillari o`zbek tiliga qo`shildi. Bilamizki, VII asr ohiri VIII asr boshlarida yurtimizda Arablar istilosi davri boshlangan. bevosita arablarning madaniyati , ilm-fani hamda so`zlashuvining ham kirishiga sabab bo`lgan . Shu tariqa o`zbek tilida arab tilidagi so`zlar singa boshladi . Bir necha yillar oldin arab , fors tilidagi so`zlar ko`p foydalanilgan bo`lsa hozirgi kunda ularning salmog`i kamayib bormoqda , ammo ba`zi ijodkorlarimizning asarlarida olinma so`zlardan mohirona foydalanilganini guvohi bo`lmoqdamiz. Misol tariqasida aytishimiz mumkinki, Nazar Eshonqulning “ Taqiq mevasi ” romanida arab , fors , tojik tilidagi so`zlardan ham foydalanilgan .

### TAHLIL VA NATIJALAR

Asar ikki novelladan iborat bo`lib , falsafiy roman hisoblanadi. Yozuvchi asarda mifopoetik unsunlardan foydalangan bo`lib , bu asar mazmunini yoritishga yordam bergan , jumladan , asarda boshqa qatlam tillariga mansub so`zlarni ham uchratamiz. Dastlab , Romanda keltirilgan arabizmlar bilan tanishib , ular asarda qanday ma`noda qo`llanilganiga e`tibor qaratsak



“Havoning sahna olamiga tashrif qog`ozi , o`zining orzurda o`tgan umri , besarishta kechinmalari, o`z paytida kimlargadir, ehtimol, o`sha mutaassib va mustabid otasigadir, izhor qilolmagan dastlabki arzi edi .U bu – **mehrobg**a yetib kelguncha sarkash og`ular girdobida edi . ” ( I novella 285- bet .)

**Mehrob** - so`zi arabcha – mihrab (un ) shakliga ega bo`lib muqaddas joy ma`nosini anglatadi ,<sup>1</sup> biroq ijodkor asarda so`zga yanada chuqur yondashgan ,ya`ni endi mehrob so`zi “ tomoshalar ijro etiladigan joy ” ma`nosini bermoqda .Bilamizki , Sahna ham muqaddas dargoh bo`lib u huddi Mehrobg qiyoslandi.

*Havo sahnada ham ruhini egallab olgan “ telba jununlar ” ichida yashab qolgan edi. ( I novella 288 -bet )*

Yozuvchi asarga olib kirgan **junun**<sup>1</sup> so`zi kelib chiqishi arabcha so`z bo`lib “ Majnun ” degan ma`noni bildiradi.Biroq asarda adib so`zni mohirlik bilan qo`llab yangi ifoda kashf etgan , ya`ni “ telba ruhlar ,arvohlar ” degan tushunchani yuzaga keltirgan.

*Hatto g`ubor - u pardalar ham muxlis va muhibga aylangandek uning uqubat to`la nolasiga dosh berolmay joylarida ilkis tebranishardi. ( I novelladan 288- bet )*

Bugungi kunda tilimizda do`st -yor ,birodar iboralari ko`p ishlatiladi,biroq avval bu so`z o`rnida “ **muhib** ” so`zi ishlatilgan bo`lib ,bu so`z kelib chiqishi arabcha so`zdir. <sup>2</sup> Ijodkor bu so`zni asarga olib kirish bilan emotsionallikni oshirgan.

*Men uning o`zidan ham ko`ra sahnada yaratgan , ko`rgan , eshitgan har bir kimsaga asli o`zi bu zaminlik emasligini eslatib ruhni va ko`ngilni yuksaklarga Arshi a`loga olib chiqadigan dardlarni ,og`rig`ini sevib qolganimni angladim.(I novelladan 289 – bet).* Arshi a`lo birikmasi arsh so`zidan olingan bo`lib , **arsh**<sup>1</sup> so`zi arabcha taxt balandlik degan ma`noni anglatadi . Bu so`z birikib - “ osmonning eng yuqori qismidagi taxt ” ma`noda va bu taxt Ollohga nisbat berish uchun ishlatiladi.<sup>1</sup> Bilamizki,roman falsafiy mazmunda yaratilgan bo`lib din va mif tushunchalari yonma-yondir. Yozuvchi ham bu birikma orqali Malakning dard va iztiroblari Alloh oldiga yetib boradi ,ko`tariladi ma`nosida Arshi a`lo tushunchasini qo`llagandir.

*Hovlimizdagi olma Havoning muattar hidi kelib urilgan ,o`sha lahzada xuddi hur-u g`ilmonlar parvona, pari bulbullar sayrab turgan ravzayi firdavsga tushib qolganday edi. (II novella 301 – bet ) .* **G`ilmon**<sup>1</sup> - arabcha “ g`ulom ” so`zining ko`plik shakli bo`lib , “ yigitlar, bolalar , xizmatkorlar ” - degan ma`noni bildiradi. Diniy jihatdan – “ Jannatda xizmat qiladigan yosh go`zal yigit ” - deya ifoda etiladi. Shuningdek , Adib gapda - “ parilar va Jannatning yigitlari parvona edilar , ” - jumlasini badiiy ifoda etish uchun arabzimdanda foydalangan.

*Ko`plar mening Malakka bo`lgan sevgimni **ihotalash** uchun qilayotgan jirtaki , qo`rs xatti – harakatimni va qiliqlarimni tushuna olmas edilar . ( II novelladan 307 – bet ) .*

**Ihota**<sup>1</sup> – arabcha so`z bo`lib , “ o`rab olish ,qamrab olish ” – degan ma`noni bildiradi. Asar qahramoni bo`lgan – O..... ham o`zining Malakka nisbatan tuyg`ularini oshkor etmaslik , yashirish maqsadida ,sevgisini ihotalamoqni istaydi , ya`ni U barcha tuyg`ularini berkitadi. Yozuvchi buni ifodalash uchun ihota so`zidan foydalanadi va asarga bu so`z – olinma so`z bo`lib kirib keladi.

*Men anhor bo`ylab huddi aqldan ozgan , bu dunyodan uzilgan ,dunyoning **intihosi va ibtidosini** xayolida ulamoqchi bo`layotgandek kezib chiqardim. ( II novelladan 312 – bet ) .*

**Intiho va ibtido**<sup>1</sup> so`zlari arabcha bo`lib , intiho – “ ohir , tugash ” ma`nosini anglatadi. Ibtido so`zi esa “ boshlanish payti ” degan ma`noni bildiradi. Roman bosh qahramoni o`z xayollari bilan dunyoning boshi – yu , ohirini tushunishga uringan edi va bu qarashlar unga dunyo va ohirat orasidagi yo`lni anglatyotgandek ko`ringan edi.



Shu jumladan , Asar xotimasi ham o`ziga xos tarzda berilgan bo`lib , qizig`i shundaki , asarlarda tugallash uchun “ yakuni , so`nggi ” kabi birliklar ko`p ishlatiladi. Biroq, roman falsafiy ruhda yozilgani bois ,tugallanmasi uchun ham alohida yondashilgan.

Xotima deyilishi o`rniga “ **Marsiya** “ so`zi ishlatilgan.

**Marsiya**<sup>2</sup> - arabcha so`z bo`lib , “ marhumning xotirasiga bag`ishlab yozilgan motam she`ri ma`nosini anglatadi. Asar so`nggi Malak vafot etishi bilan tugaydi. Yozuvchi bu g`ussali holat bo`lgani uchun uni marsiya deb atadi. Roman nihoyasini yakunlash uchun bu so`zdan foydalanadi.

## ROMANDA QO`LLANILGAN FORS – TOJIK TILIGA OID OLINMA SO`ZLAR.

Fors - tojik tilidan o`zlashgan so`zlar bizning ko`plab asarlarimizda mavjud bo`lib ular asarga aktual yondashishda hamda asar mazmunini to`laqonli ochib berishda muhim omil hisoblanadi. Buning yorqin namunasi sifatida A. Navoiy , Bobur , Fitrat , Ogahiy va boshqa ko`plab ijodkorlarimizni ayta olamiz.

Bugungi zamonaviy adabiyotda ham olinma so`zlardan foydalanilgan asarlarni ko`rishimiz mumkin . Nazar Eshonqulning “ Taqiq mevasi ” romanida ham fors - tojik tiliga oid birliklar mavjud bo`lib ,ularni asar kompozitsiyasidagi va lingvistik yondashuvdagi o`rnini ko`rib chiqamiz :

*Odam Ato o`zi bilan behishtdan bu makonlarga olib kelgan hijron urug`ini ekar , oxir – oqibat ko`z oldimdagi olamga ayro va begona bo`lib boqardim.*

**Behisht**<sup>2</sup> – forscha so`z bo`lib “ Jannat ” -degan ma`noni anglatadi. Asardagi mifopoetik obraz bo`lgan “ Odam Ato ” insonyatga jannatdan olib kelgan jabr – sitam haqidagi qarashlar berilgan va buni huddi dalillagandek behisht so`zi ishlatilgan ( I novella 304 – bet ) .

*Zamin quyosh qozonida qaynay boshladi . Undan za`faron dud<sup>3</sup> ko`tariladi – bu mening hijronda sarg`aygan tanamdan , mahtallikdan , zahlangan ko`nglimdan ko`tarilayotgan dud<sup>3</sup> edi. ( II novella 308 – bet ) .*

**Dud**<sup>3</sup>– so`zi tojikcha “ tutun ” ma`nosini anglatib , bu ot tarkibidagi **u** tovushi asli cho`ziq u tovushi bo`lib , o`zbek tilida cho`ziqlik belgisini yo`qotgan. Tutun misoli bosh personaj qalbidan chiqayotgan hijron va otashning nishonasi edi.

Adirlarda yotgan tumanlar Bog` to`riga keldi bostirib Shamollarga o`ptirdi gular quyosh o`pgan **siynalarini**<sup>3</sup> va g`azabdan johil daraxtlar ko`tarishdi nayzalarini . ( II novelladan 317 – bet ) .

**Siyna**<sup>3</sup>- Bu ot IPC<sup>4</sup> da [ sine ] shaklida ( 301 ) , ТҗPC<sup>5</sup> da *sina* shaklida (358 ) keltirilgan ; o`zbek tiliga tojikcha shaklidagi *i* tovushini *iy* tovushlariga almashtirib olingan , “ ko`krak ” degan ma`nosini anglatadi.

Bir qarashda oddiy tabiatni ifoda etgandek tuyilgan bu jumlar , aslida personaj ning qalb tug`yonlari va kechinmalaridir. Uning qalbida yotgan otash avj oldi va boshqalarga tushgan nigohlarni yo`q qilishga urindi , adib siyna so`zini asarga nafaqat ko`krak , balki “ otashin nigoh ” ma`nosida ham keltirgan bo`lishi mumkin.

*Loy tomalar chuchmomadan sarpo kiyyapti . Butoq yonida maysalar bosh ko`taradi – ular yer ostidan mujdalar olib kelgan . ( II novelladan 320 – bet ) .*

**Mujda**<sup>2</sup> - forscha so`z bo`lib , “ xushxabar , quvonarli ma`lumot ” degan ma`noni bildiradi. Proza va poeziyada xushxabar shaklidan unumli foydalaniladi. Bilamizki , Bahor fasli kela boshlaganida yerdan boychechak , maysalar bosh ko`taradi , ular yangi fasl kelayotganidan darak beradi. Adib ham bunday xursandchilikni mujda deya atadi.

*Daraxtlar izza qilishga olib chiqilgan mahkumlardek shir yalang`och bo`lib olishgan . Anovi gilosning ikki kun oldin ko`rganim ikki - bargi ham to`kilib bo`libdi. ( II novelladan 321 – bet ) .*



**Shir**<sup>2</sup> - soʻzi forscha soʻz boʻlib turli maʼnolarni anglatadi : 1) Yupqa gazmol yirtilganda , suv oqqanda hosil boʻladigan tovush . 2) Forscha – sut degan manoni bildiradi , biroq bu soʻz boshqa soʻzlar bilan birikib aktuallik hosil qilganda maʼno tubdan oʻzgarib ketadi . Asarda bu birlik shir yalangʻoch tarzida izofaviy birlik boʻlib kelgan va ( qip yalangʻoch ,hech narsa kiymagan degan mazmunni ifoda etgan ) . Yozuvchi kuz faslini bu jumlar bilan mohirona uslubda foydalangan , kuz faslida daraxtlar barg toʻkishi va bargsiz daraxtlar huddi kiyimsizdek turishi yozuvchi tilidaz oʻzgacha uslubda kashf etilgan. *Hosilaning koʻnglini sindirganimni , adolatsizlik qilganimni keyinchalik ham juda koʻp esladim . U bilan oramiz sovib ketgandan keyin unga oʻrganib qolganimni , uni yaxshi koʻrmagan boʻlsam ham , mening eng yaqin **hamdamimga** aylangani his qildim. ( II novella 337 – bet ) .*

**Hamdam**<sup>2</sup>– forscha soʻz boʻlib , “ samimiy , yaqin oʻrtoq , doʻst ” degan maʼnoni anglatadi. Hosila bosh qahramonning yaqiniga aylangani , yaʼni doʻsti , fikrdoshi boʻlib qolgani haqida taʼkidlaydi .

*Meni uch yil suyab turgan ustunlar birdan qulab tushgandek edi . Oʻzimni behol kuchsiz , **pajmurda** his qildim . ( II novella 354 – bet ) .*

**Pajmurda**<sup>3</sup> - Bu sifat “ soʻli ” – maʼnosini anglatadigan tojikcha pajmurdan feʼlining ( ТҶРС , 294 ) *pajmurd oʻtgan zamon asosiga - a* qoʻshimchasini qoʻshib hosil qilingan oʻtgan zamon sifatdoshi shakli boʻlib “ soʻlgʻin ” maʼnosini anglatadi. Yozuvchi tushkun holatiga badiiy emotsionallik berish uchun pajmurda soʻzidan foydalangan .

#### XULOSA

Xulosa sifatida ayta olamanki, asar tili ravon va sodda yozilgan . Tilshunoslik uchun ham zarur boʻlgan atama va iboralar mavjuddir. Bu maqola orqali Nazar Eshonqulning “ Taqiq mevasi ” romanida foydalanilgan olinma soʻzlar haqida yetarli darajada maʼlumot olish mumkin. Bundan tashqari, Oʻzlashgan soʻzlar qanday maʼno aks ettirgan va uslub jihatdan qanday kompozitsiyani yoritib bergani haqida ham izlanishlar olib borilgan .

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Sh. Rahmatullayev “ Oʻzbek tili etimologik lugʻati ” . II jild Toshkent 2003.
2. “ Oʻzbek tili izohli lugʻati ” Rus tili nashiryoti 1981.
3. Sh. Rahmatullayev “ Oʻzbek tilining etimologik lugʻati ” II jild Toshkent 2009.
4. ПРС-Миллер Б.В Персидско – русский словарь . М : 1953.
5. ТҶРС – Таджикско – русский словарь. М : 1954.
6. Xolmanova Z. T . “ Tilshunoslikka kirish ” Toshkent 2007.

[https://t.me/etimologiya\\_burchagi](https://t.me/etimologiya_burchagi).

**FORS TILI** <http://library.navoiy-uni>.

